



## ETIKA VA ESTETIKA (AXLOQ PSIXOLOGIYASI)

Fayzullayeva Dilorom Sanjarbek qizi

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 2304-guruh talabasi

Ma'ruf Sadinov

Ilmiy rahbar:

(+998)946412031

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15396228>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 13-May 2025 yil

### KEYWORDS

Axloq, etika, estetika,  
ma'naviyat, go'zallik falsafasi,  
biofiliya, nekrofiliya.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada etika va estetika tushunchalari, ularning vazifalari hamda jamiyatdagi ularga bog'liq jihatlar, shu bilan birga axloq psixologiyasi mazmuni va mohiyati nimadan iborat ekanligi haqida bir qancha fikrlar keltirilgan..*

Estetika borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlari haqidagi fandır. Estetika voqelikni mushohada etish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi, estetika- bu nafasat olami, saan'at va badiiy ijod jarayonlarini his-tuyg'u, sezgi-idrok qilish vositalari orqali o'rganadi. <sup>4</sup>Insonning estetik faollilgi jarayonida tabiat va jamiyat qadriyatlarini munosabatlaridagi estetik xususiyatlar (go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va pastkashlik, fojialilik va kulgililik) qonuniyatlari namoyon bo'ladi.

Barcha narsalarning mezon o'lchovi insondir. <sup>2</sup>Sharq uyg'onish davri mutaffakiri Farobiyning fikricha "Go'zallik insonning jismoniy, ma'naviy va axloqiy chiroyining ifodasidir". Go'zallik yaratuvchi ijodkorlarning boshq odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlay olmaydigan go'zallikni hamma yerda ko'ra olish, fahmlash, sezish va his qilish qobiliyatiga egadir. Ulug'vorlik esa hajm va salmoq bilan bog'liq bo'lgan narsa hodisalarning bir qarashda ilg'ab olinmaydigan jihatlarini, ulkan qudrat va miqyosga ega voqelikning estetik ko'rinishini anglatadi. Fojealilik va kulgililik estetik tushunchalari yordamida hayot ziddiyatlari va to'qnashuvlari baholanadi va ular orqali insonning ijtimoiy hayot hodisalariga nisbatan estetik munosabati ifodalanadi. Estetika dinshunoslik, axloqshunoslik, psixologiya, falsafa hamda pedagogika kabi ijtimoiy fanlar bilan ham uzviy aloqador. <sup>5</sup>Estetikaning atrofida biz o'rganishimiz mumkin bo'lgan bir qancha tushunchalar mavjud:

1. *Estetik ong* – ma'naviy, ruhiy hodisalar majmuyi bo'lib, ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik orzu, estetik qarash va nazariyalar tizimidan iborat.

2. *Estetik his-tuyg'u* bizni o'rab turgan voqeani estetik jihatdan his etish, uning go'zalligini va uyg'unligini sezish qobiliyatidir.

3. *Estetik did* olamning go'zalligini anglashdir. Estetik did voqea-hodisalarning sifatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baholash jarayonidir.

*Estetik orzu* – bu insonning go'zallik haqidagi tasavvurlarining eng yuksak ifodasidir.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida: "Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi, chunki boshqa jonivorlardan odam o'n daraja ortiqdir va bu afzallik odamning badanida bordir: beshi odam tanasining tashqi tomonida zohir bo'ladi va beshi ichida yashiringandir" – kabi nasihat qiladi. Ya'ni tashqi beshtasi sezgi a'zolari bilan bog'liq: eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, sezish. Va ichidagi beshtasi esa insondagi estetik ong, did va his-tuyg'uga oid: bir narsani yod qilmoq, hamisha esda saqlamoq, xayol qilish, farq qila bilish va nutq.

Etika va estetika doim birga tilga olingan va doim go'zallikni insoniy hislatlar hamda axloq yanada go'zallashtirib bezab turadi. Estetika borliqni go'zallik qonunlariga ko'ra o'zlashtirish bo'lsa, etika axloq chegaralarini tavsiflaydi. Etika – bu axloq, uning ijtimoiy mazmuni, tizimi va vazifalari, axloqiy tarbiya va uning mohiyatini o'rganadigan fan. Axloq kishilarning o'zaro hamda kishilar bilan jamiyatning o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy ifodasi, kishi xulqini idora qiluvchi axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlar birligidir. Etika filosofiya, milliy istiqloq g'oyasi, sotsiologiya, huquqshunoslik, tarix, adabiyot, etnografiya, sotsial psixologiya hamda pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liq. Har qanday davlat va har qanday davrda fuqorolik jamiyatini qaror toptirish va komil insonni shakllantirishda axloqiy dunyoqarashning o'rni alohida ahamiyatli. Etika jamiyatdagi mana shu axloqiy dunyoqarashni boshqaradigan tizimdir. <sup>1</sup>Etikada ham estetika kabi bir qancha biz bilishimiz kerak bo'lgan tushunchalar mavjud va ularning mazmuniga ba'zida to'liq yetolmaymiz:

1. *Adolat* – axloqiy munosabatlarning regulyatori, tenglikning haqiqiy va taqdirlashning zaruriy o'lchovi.
2. *Burch* insonning jamiyat, oila, hamda eng avvalo o'zining oldidagi qilishi kerak bo'lgan vazifalar tizimidir.
3. *Vijdon* inson ma'naviyati o'sishi bilan boyib boradigan, baho, buyruq, motiv, emotiv kabi xarakterlarda ko'rinadigan tushunchadir.
4. *Or-nomus va qadr-qimmat* shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solidi va kishilar xulqiga ta'sir o'tkazadi.
5. *Baxt* inson hayotining umumiy bahosi.

Axloq psixologiyasi shaxs ichki ruhiy dunyosining amaliy harakatlarida namoyon bo'ladi. Qadimdayoq axloqshunoslik (etika) ruhshunoslik, ya'ni psixologiya bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Millatning, xalqning ma'naviyati va unga xos bo'lgan ruhiyat alohida individlarda yashasada, uning paydo bo'lishi, gullab yashnashi va tanazulga uchrashi ijtimoiy psixologiya tarmoqlarining vazifasidir. Ta'kidlash kerakki, ma'naviyatning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati va zaruriy ehtiyoj ekanligi qadimdan ma'lum va unga dunyo mutafakkirlari ham o'z diqqatini qaratganlar. Rus mutafakkirlaridan biri V.I.Dal o'zining bir asarida ma'naviyat tushunchasini "bir jon va ruhdan paydo bo'lgan, avlodsiz, moddiy bo'lmagan, insonning aql va irodasi mahsuli bo'lgan, uning ruhiga tegishli hamma aqliy va axloqiy quvvatlardir" deb ta'riflagan. Axloqni aynan insonning ichki kechinmalari, ruhiy ozuqasi sifatida ko'rilishi, ma'naviyat inson ruhiyati bilan bog'liq ijtimoiy hodisa ekanligidan dalolat beradi. Axloq aynan inson ruhiy o'sishining uzuqasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Haqiqatda ham ma'naviy boy insonning ruhiyati bilan ma'naviy qashshoq insonning ruhiyati o'rtasida farq yaqqol ko'rinadi. Yaqindagina bir kitob o'qib qoldim va unda ma'naviyatli inson jamiyat manfaatlari hamda ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi, ma'naviyatsiz inson esa har doim o'z manfaatlari yo'lida harakat qiladi kabi jumlar bor edi.

Va menda biroz boshqacha fikrlar tug'ila boshladi. Albatta, etika hamda estetika ma'naviyatning asosidir, lekin ma'naviyat tushunchasini doim jamiyat bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi, menimcha. Tarixga qaraydigan bo'lsak bunday hodisalar ko'p bo'lgan. Ma'naviyatsiz, yashash tarzi qashshoq va ruhiy taraflama ham past darajada rivojlangan ba'zi millatlardan dunyoni boshqara oladigan va o'z kashfiyotlari-yu fikrlari bilan boshqa millatlarni ortda qoldiradigan kishilar yetishib chiqqan. Ularning bunday yuksak aql-zakovatga ega bo'lishlarida doim ham jamiyat sabab bo'lmagan. O'ylashimcha, bunday insonlar o'z shaxsiy rivojlanishlariga ega bo'ladi, faqatgina o'z jamiyati nuqtayi nazaridan emas, butun insoniyat nuqtayi nazaridan fikrlaydilar. Agar mana shu jarayonda umumiy keng ma'noda fikrlashga, jamiyat va insoniyatning ko'plab yangiliklarini o'zlashtirishga harakat qilayotgan insonda ma'naviy bo'shliq yuzaga kelsa, hozirda bo'layotgan shiddatli axborot almashinuvi hamda globallashuv davrida, o'zini anglamaganlik oqibatida zararli odatlar ta'sirida qolishi (Evropa va Amerikada bir jinsli nikoh, insoniylik normalari o'rnini hayvoniylik egallashi) va "siyosiy o'yinlar qurboniga" aylanib qolish (Arabiston yarim oroli va misrdagi "Arab bahori" nomi bilan atalgan tartibsizliklar) holatlari bo'lishi mumkin.<sup>3</sup> Agar insonlarda, xususan, yoshlarda ma'naviy va axloqiy bo'shliq bo'lmasa hamda ularning psixologik imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalari shakllantirilsa, xulq-atvorda og'ishlar yo'qoladi, ma'naviy barkamol va psixologik sog'lom immunitet shakllanadi. Bu esa o'ziga xos himoyalaniшни ta'minlaydi. Faylasuf hamda psixolog Erix From "Inson qalbi" nomli asarida mazkur muammo yuzasidan o'zining qator fikrlarini bildirgan. Uning fikrlariga ko'ra, insonning hayotni sevishi, ezgulikka moyilligi, psixologik sog'lomligi, o'zining haqiqiy qiziqishlari va intilishlariga tayanib ish tutishini "biofiliya" deb atagan. "Biofiliya" insonning bolalik davrida ko'rsatiladigan mehr-muhabbatga bog'liq shakllanar ekan. Bu tushunchaga qarama-qarshi tushuncha ham mavjud bo'lib, u "nekrofiliya" deb ataladi hamda o'limni sevish, yovuzlik va qonxo'rlikka nisbatan moyillikni anglatadi. Shuningdek, Erix Fromning ta'kidlashicha, biofiliyaga moyil insonlardan tashkil topgan ijtimoiy muhitda o'sgan bola ham biofiliyaga moyil bo'ladi. Yana u nekrofiliya ham iofiliya singari "yuqumli" ekanligini aytib o'tgan.

A.Maslouning ehtiyojlar nazariyasiga e'tibor qaratilsa, o'rtamiyona inson hayoti davomida mehrga bo'lgan ehtiyojning 50 foizini qondirishi tahmin qilinadi. Demak, bu miqdor pasaysa insonda salbiy tomonlama axloqiy, psixologik, patologik va biologik o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsam, insonlardagi ma'naviy va axloqiy bo'shliqlarning barchasi yoshligidan boshlab uzoq rivojlanadi. Shu jumladan, insondagi etika va estetika qay darajada ekanligi uning jamiyat va insonlar bilan aloqasidagi ma'naviy va axloqiy me'yorlarga bog'liq. Shunday qilib, etika va estetikaga "go'zallik va axloq falsafasi" iborasini ishlatsak ham bo'ladi. Aslini olganda etika hamda estetikaning jamiyatda, insonlar orasida, oilada foydalanish kerak bo'lgan tarmoqlari juda ham ko'p. Ammo jamiyatga endi shaxs sifatida qo'shilayotgan inson uchun ma'naviy va axloqiy rivojlanish yetarli bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammadjonova.L. – Amaliy etika va estetika. – T.: Toshkent, 2020.
2. Abdulla Sher. – Axloqshunoslik. Darslik. – T.: Toshkent, 2010.
3. Karimov I.A.- Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Ahmedova.M.-Falsafa.-T.:Toshkent,2006.
5. Haydarov.O, Ostonov.J, Sultonova.O.-Uslubiy qo'llanma.-T.:Samarqand-2022